

HOZIRGI O'ZBEK NASRIDA XARAKTER TABIATI

Hasanov Suhrob Shavkat o'g'li,

Samarkand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi.

hasanov.suhrob7219919@gmail.com

Annotatsiya. O'zbek adabiyotida XX asrning 70-yillariga qadar yaratilgan asarlarning qahramoni sotsialistik realizmning talabi bilan kurashchan, ijtimoiy xarakterligi bilan ajralib turadi. Biroq 70-yillar nosirlari avlodi ijodida bu an'anaga bir qadar barham berildi. Avval modernistik kayfiyatlar, ong oqimi, so'ng postmodernistik xususiyatlar ko'zga tashlana bordi. Mazkur maqolada hozirgi o'zbek nasrining zabardast vakillaridan biri B. Qobulning "Bog'dagul", "O'spirinlik", "Ena Shamol" asarlari misolida moden va postmodern uslubidagi asarlardagi xarakterlarning o'ziga xosligi, shuningdek, intermatnlik hodisasi haqida so'z yuritiladi. Tahlillarda qiyos uchun o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari K.Isiguro, Izzat Sulton, Murod Muhammad Do'st, Ahmad A'zam, U.Hamdamning ayrim asarlariga murojaat etildi.

Kalit so'zlar. Xarakter, intermatnlik, xronotop, syurrealistik tasvir, postmodernizm, kompozitsiya, konflikt, sujet.

ÇAĞDAŞ ÖZBEKİSTAN NESİRİNDE KARAKTERİN DOĞASI

Hasanov Suhrob Şavkat oğlu,

Semerkant devlet Yabancı diller enstitüsü

İngilizce dil kuramı ve uygulaması bölümü öğretim görevlisi

Özet. Özbek edebiyatında 1970'lere kadar yaratılan eserlerin kahramanları, sosyalist gerçekçiliğin talepleriyle mücadele eden toplumsal karakterleriyle öne çıkarlar. Ancak 1970'lerdeki Nasır kuşağının çalışmalarında bu gelenek bir ölçüde terk edildi. Önce modernist ruh halleri, bilinç akışı, sonra da postmodernist özellikler belirginleşti. Bu makalede, çağdaş Özbek nesrinin önemli temsilcilerinden B. Kâbul'un "Boğdagül", "O'spirinlik" ve "Ena Şamol" gibi eserleri ele alınarak modern ve postmodern eserlerdeki karakterlerin özgünlüğü ve metinlerarasılık olgusu tartışılmaktadır. Analizlerde karşılaştırma amacıyla Özbek ve dünya edebiyatı şahsiyetleri K. Ishiguro, Izzat Sultan, Murad Muhammad Do'st, Ahmad A'zam ve U. Hamdam'ın bazı eserleri kullanılmıştır.

Anahtar kelimeler. Karakter, metinlerarasılık, kronotop, gerçeküstü imge, postmodernizm, kompozisyon, çatışma, özne.

ХАРАКТЕР ХАРАКТЕРА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКИСТАНСКОЙ ПРОЗЕ

Хасанов Сухроб Шавкат оглы,

преподаватель кафедры теории и практики английского языка

Самаркандского государственного института иностранных языков

Аннотация. В узбекской литературе герои произведений, созданных до 1970-х годов, отличаются социальным характером, борются с требованиями социалистического реализма. Однако в творчестве поколения Насира 1970-х годов эта традиция была несколько нарушена. Сначала проявились модернистские настроения, поток сознания, а затем и постмодернистские черты. В данной статье рассматривается своеобразие персонажей в современных и постмодернистских произведениях, а также явление интертекстуальности на примере произведений Б. Кабула, одного из ярких представителей современной узбекской прозы, таких как «Богдагул», «Оспирилик», «Эна Шамол». Для

анализа были использованы для сравнения некоторые произведения деятелей узбекской и мировой литературы К. Ишигуро, Иззата Султана, Мурада Мухаммада Доуста, Ахмада Азама и У. Хамдама.

Ключевые слова. Персонаж, интертекстуальность, хронотон, сюрреалистический образ, постмодернизм, композиция, конфликт, сюжет.

THE NATURE OF CHARACTER IN MODERN UZBEKISTAN PROSE

Hasanov Suhrob Shavkat oglu,

Samarkand state Institute of foreign languages

teacher of the Department of theory and practice of the english language

Annotation. In Uzbek literature, the hero of works created before the 70s of the 20th century is distinguished by his social character, struggling with the demands of socialist realism. However, in the work of the generation of prose writers of the 70s, this tradition was somewhat abolished. First, modernist moods, stream of consciousness, and then postmodernist features became more noticeable. This article discusses the uniqueness of characters in modern and postmodern style works, as well as the phenomenon of intertextuality, using the example of the works of one of the prominent representatives of modern Uzbek prose, B. Qabul, "Bogdagul", "O'spirinlik", "Ena Shamol". The analyses used some works of Uzbek and world literature figures K. Ishiguro, Izzat Sultan, Murad Muhammad Do'st, Ahmad A'zam, and U. Hamdam for comparison.

Keywords. Character, intertextuality, chronotope, surrealistic image, postmodernism, composition, conflict, plot.

O'zbek adabiyotida hikoyalardan tarkib topgan qissalar ancha mashhur. A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur", "Jayhun ustida bulutlar", "Ibn Sino qissasi" va boshqa asarlar. Qatralardan tashkil topgan hikoyalar esa Bahodir Qobul nomi bilan adabiyotimiz maydoniga kirib keldi. Uning "Enashamol", "Otachiroq", "Oq dala", "Bog'dagul" asarlari shunday xarakterdagi hikoyalardir. Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, B.Qobul nasrida intermatnlilikni yuzaga keltiradigan omillar sifatida maqol, matal, rivoyat, hikoyalarni aytib o'tish mumkin. B.Qobul hikoyalariida doimiy ishtirok etadigan, u asarlardan bunisiga ko'chib yuradigan maxsus obrazlar bor, bu Ena va uning gaplarini kotib sifatida yozib boradigan nevara-bola obrazlaridir. Buni "Enashamol", "Kunga mahtal kampirlar", "Bog'dagul" va boshqa asarlari misolida ko'rsak bo'ladi.

K.Isiguro nasridan farqli ravishda B.Qobul nasrida xronotop yagona makon va zamon o'lchamlarida kechadi. Uning nasrida intermatnlilikning rang-barang, shu bilan birga, o'ziga xos, original ko'rinishlarini uchratish mumkin. Misol uchun, "Bog'dagul" asarida roviy tomonidan "Gulbog" atalgan she'riy turkum beriladi. Bu turkum Alisher Navoiy qit'a va g'azallarining ayrim bandlaridan tashkil topgan o'ziga xos yangi asardek taassurot qoldiradi:

Xalqqa zebi torak ayla ani,
O'qilg'ong'a muborak ayla ani.
Yeti aflokni anga yor et,
Yeti iqlim elin xaridor et!
Kimgakim qildim vafo, vah kim, jafodosh edi,
Olam ahlida vafo mavjud emas beishtiboh.
Orzu qildim vafo ahlin ko'ray deb topmadim,
Hoh zohid, hoh fosiq, hoh sayid, xoh shoh.
Agarchi men yamon, sen yaxshidursen, mu'tarifdurmen,
O'zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yamon ermas.
Ey Navoiy, maxlas istar bo'lsang el til-og'zidin,
Nazmidin ham tilni tiyg'il, nasridin ham yum og'iz.

Mazlumga bahshoyish ko'rguzki, zolimdan osoyish ko'rgaysen.
Chin so'z kim, erga ulug' hunardur. [8.30-31]

Ushbu she'riy parchalar Alisher Navoiy hazratlarining turli janr va shakldagi asarlaridan tashkil topgan bo'lsa-da, hikoya qilinayotgan voqea ritmiga mos va xosligi bilan estetik zavq bersa, ikkinchidan matnning qamrov-doirasini, ma'no ottenkalarini kengaytirganligi bilan o'quvchining badiiy-estetik didiga ijobiy ta'sir qiladi, uning tarixiy xotirasini o'z navbatida imtihondan ham o'tkazadi.

Intermatn hodisasi individual uslubi taqozosiga ko'ra turli yozuvchilarda har xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, Kadzuo Isiguro nasrida hayot va xayol bir butunligi yuzaga kelib, ifoda etilayotgan tasvirning ba'zan xayoliy yoki hayotiyli o'rtasida chegara yo'qoladi. Syurrealistik tasvir ustunligi seziladi.

Bahodur Qobul nasrida esa bu xususiyat jonlantirish san'ati orqali amalga oshadi. Bunda endi jonsiz narsa va buyumlarga jon, bezabon mavjudotlarga til bitadi, shamol, olov, tuproq, suv kabi tiriklik asosi bo'lgan unsurlar o'y-xayollarga beriladi va fikrlaydiki, bu uslub B.Qobul poetik manerasida qat'iylashib bo'lgan ifoda usullaridan biridir.

"Tanish-notanish, katta-kichik yulduzlar deraza ortida tizilishgancha mo'ralashadi. Zuhro bir taroq o'zining, bir taroq dugonalarining sochini taraydi. Betma-bet tikka turg'izib qo'ygancha Oyni oyna qilib olgan bo'ladi. Yuragida vujuri bor dugonalardan biron tasi biron uzoqroq joyga tushadi, chog'i. Mushtariy o'sha-o'sha: xat-qalam yuritadi. Elning og'zidan eshitganini bir bo'lak, ko'rganini bir boshqa, o'zidan qo'shganni bir qo'sh. Egizaklar bejag'imgini qo'ymaydi. Qulog'iga gap kirmaydi. Ming gapirganing bilan unisidan kirib, bunisidan chiqib ketadi. Bir-biri bilan itolish o'ynagani-o'ynagan. Kunduzlariyam bir ko'zlari derazada. Xabar kutib, xabar poylab. Yulduzlar hamma baloni biladi. Ularni bir joyda turadi deb o'ylamang tag'in". [8.64-65]

Ushbu misoldan ham ko'rinmoqdaki, oy-u yulduzlar ham shaxslantirilmogda, insondek o'y-xayollarga berilib, insondek yashamoqda va nafas olmoqda.

B.Qobul nasrining yana bir jihatiga to'xtalish zarurki, bu unda ham maqol, matal, hikmatli so'zlar, aforizmlarning ba'zan aynan, ko'pincha yangi ishlov berilgan variantda tig'iz joylashganligida ko'rinadi. "Bog'dagul" asarining bu hikmatomuz xalqona donishmandlik namunasi bo'lgan intermatnlilikning ketma-ket kelganligini, "Bog'dagul" matni yaratilguncha mavjud bo'lgan matnlarning yangilangan, saralangan namunalarini uchratamiz.

Yozuvchi "qarisa otangdan o'zga qul, onangdan boshqa cho'ri kerak emas" maqolini o'zlashtirib ifodalaydi: "Otadan ortiq sodiq qul, onadan ziyod chin cho'ri bo'lmas". [8.68]

Xalqona o'gitlar qatorasiga, ketma-ket, sujet voqealari ishtirokisiz qo'llaniladi, o'zbek madaniyatida mavjud matnlar "Bog'dagul" matni bilan yagona oqimga quyilib, intermatnlilikning ajoyib namunasi yuzaga keltiradi.

Ko'pincha badiiy asarlarda gap, asosan qisqa jumalardan tuzilishiga sabab shuki, nazarda tutilayotgan va ifoda etilayotgan poetik fikr, g'oya kitobxonga tezroq etib borishi maqsadida qilinadi. Biroq, gapning nihoyatda cho'ziq va yoyiq kelishi postmodern adabiyotda ko'p uchraydi. Buni, ingliz adibi K.Isiguro, o'zbek adiblari N.Eshonqul, B.Qobul. I.Sulton va boshqalar ijodida uchratishingiz mumkin. Badiiy gap, struktur adabiyotshunoslik tili bilan aytganda, "adresatga yo'llanayotgan axborot" B.Qobul nasrida ba'zan bir, gohida bir sahifadan ham ko'proq hajmni talab etadi. Masalan, "Bog'dagul" asarining 38-betda ham davom etgan "Yaratganning yarlaqaganidan qadim o'tganlar..." deb boshlanuvchi badiiy gap bo'lagi bir sahifadan ko'proq joy egallagan.

Bizningcha, bugungi postmodern nasrda turli xil uslublar: badiiy, publitsistik, ilmiy, terminologik ifoda yo'sinlarining aralash qo'llanilayotganligi fikr va hissiyotlarni mana shunday ko'lamli ifoda etish uchun vosita va sabab bo'layotganligini aytib o'tish joiz. Ushbu nasr namunalarining ba'zilarida ilmiy asarlardagidek keltirilgan ko'chirmalar sahifa so'ngida manbasi bilan ko'rsatilmogda. Tushunarsiz so'zlarning izohi ham ba'zan sahifa oxirida, ba'zan asar so'ngida alifbo tarzida berib boriladi. Masalan, intermatnlilikni san'at darajasiga ko'targan L.Borhes asarlari so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati ham berilmogda. B.Qobul nasrida esa ilgari realistik nasrga xos bo'lmagan bunday kompozitsiya tuzilishi ham sal boshqacharoq. Misol uchun

o'quvchiga tushunarsiz so'z uchrab qolsa, uning lug'aviy ma'nosi badiiy bo'yoqdorlikda matn ichida berilaveradi. "Bog'dagul" asarining 23-betida "ovush" so'zi ishlatilib, uning lug'aviy ma'nosiga ham izoh va sharh berib ketilaveradi.

"Ovush – es-hushidan ozish, ayrilish. Hayolning kirdi-chiqdi bo'lib qolishi. Ovushda – ikki odamning boshqa bilmaydigan o'rtadagi oldi-berdisi yoki siri" ("Bog'dagul", 23-bet).

Kompozitsiyaning bunday qurilishini biz K.Isiguro nasrida ham uchratamiz. O'quvchiga notanishroq so'z va tushunchalar alohida ajratilmasdan, matn ichida izohlab borilaveradi.

O'tgan asrning 70-yillariga qadar yaratilgan asarlarning qahramoni sotsialistik realizmning talabi bilan kurashchan, ijtimoiy xarakterligi bilan ajralib turadi. Biroq 70-yillar nosirlari avlodi ijodida bu an'anaga bir qadar barham berildi. Avval modernistik kayfiyatlar, ong oqimi, so'ng postmodernistik xususiyatlar ko'zga tashlana bordi. Bu borada Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", "Galatepaga qaytish", Ahmad A'zamning "Asqartog' tomonlarda", "Soyasini yo'qotgan odam" kabi asarlarini alohida qayd etish zarurki, bularda adabiyotimizda postmodernizm kurtaklari namoyon bo'la boshladi. B.Qobul, I.Sulton, U.Hamdamlar ijodida esa bu xususiyat tobora kuchayganligini ko'ramiz. Bu adiblar yaratgan, yaratayotgan xarakterlar o'zlarining o'tmishdoshlaridan farqli ravishda ijtimoiy faol va kurashchan emas, balki voqelikda kechayotgan jarayonlarni teran va psixologik aniqlik bilan kuzatayotgan xarakterlardir. Xarakterning ana shunday kuzatuvchanlik pozitsiyasida ekanligi bilan B.Qobul va I.Sulton nasri K.Isiguro nasriga ancha yaqin va hamohangdir.

Bunday xarakterlar sirasiga K.Isiguroning janob Rayder, janob Xoffman, Kollinz xonim, Sofi, Shtefan, B.Qobulning asarlaridan asarlariga o'tib yuradigan Ena, Bola (nevara), muallif nutqidan rivoyat qiluvchi roviy, I.Sultonning Avliyo ota, professor Ziyo, G'arib, "Ozod", "Boqiy darbadar" romanlaridagi bir qator ramziy obrazlarini kiritishimiz mumkin.

Bugungi intermatnga asoslangan asarlarning konflikt xususiyatlarini ko'zdan kechirish bularning an'anaviy va modern adabiyotlardan farq qiluvchi alomatlarini ochishga xizmat qiladi. Bu yaratilayotgan asarlar adabiyot nazariyasining ba'zi jihatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi, chunki mavjud nazariy manbalar bugun yaratilayotgan rang-barang janr va shakllardagi asarlarning xususiyatiga javob berolmay qolmoqda. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida, adabiyot nazariyasida yozilgan darslik va o'quv-q o'llanmalar yangi paydo bo'layotgan modern yoki postmodern asarlar haqida tushuncha berolmaydi. Chunki modernizm ham, postmodernizm ham mavjud adabiy-nazariy qarashlarga isyon tarzida paydo bo'lganligini hisobga olishimiz lozim.

An'anaviy – nazariy qoidalarga ko'ra, dramatik asarlarning konfliktida, ayniqsa, tragediya va dramada shaxs va taqdir o'rtasidagi konflikt asos qilib olinadi. Epik asarlarda esa xarakterlararo konflikt ustunlik qiladi. Lirikada esa lirik "men" ruhiyati va tuyg'ularidagi qarama-qarshilik konflikt o'zagini tashkil etadi. Biroq bugun yaratilayotgan asarlarda biz bu konflikt turlarining ustunligini ko'rmaymiz. Chunki adabiy tur va janrlarning, uslublarning qorishuvi bu konflikt turlarini ham aralashtirib yuborganligiga guvoh bo'lamiz.

Lirikada dramatik yoki epik konflikt xillarini, prozada lirika va dramaga xos konflikt turlarining ustuvorligini ko'rish mumkin. Jumladan, biz tadqiq etayotgan K.Isiguro, I.Sulton, B.Qobul nasrlaridagi konflikt xillari ham an'anaviy nasrga xos konfliktidan tafovutlanadi. Ushbu adiblar nasrida konflikt ko'proq "ichki qobiq"da, ya'ni ruhiy-psixologik kechinmalarda kechmoqda. K.Isiguroning "Noktyurnlar", "Halovat topmaganlar", "Tumanli rutubatlar aro" asarlarining barchasida hissiyot va kechinmalardagi ziddiyatni ko'ramiz. Bu romanlarning birortasida xarakterlararo ziddiyat va keskin qarama-qarshilik kuzatilmaydi.

O'zbek adabiyotida konfliktning ichki qobiqda, ruhiyatda kechishi M.M.Do'st, Tog'ay Murod, E.A'zam, Ahmad A'zam kabilar ijodida kuzatiladi. Bu jihatdan M.M.Do'stning Nazar Yaxshiboev, T.Murodning Ziyodulla, E.A'zamning Bakir, Nuriddin Elchiev kabi obrazlarini eslab o'tish kifoya.

B.Qobul nasrining dramatik asarlarga, sahna asarlariga yaqinligi bor, xarakterlarning yangidan-yangi qirralari ochilaveradi, biroq xarakterlar yangi emas. "O'spirinlik" yoki "Ena Shamol"dagi qahramonlar boshqa asarlariga ham ko'chib, o'zligini anglatib turadi. Bu xarakterlar

yo'zuvchining ilk asarlaridan boshlab kitobxonga tanish bo'lib, yangi xarakter kamdan-kam hollarda paydo bo'ladi. Ena, bola, Mardon tentak, Bog'dagul kabi qator obrazlar ana shunday asardan asarga ko'chib yuradigan xarakterlardir. Shu bois bu asarlarda xronotop ham o'zgarmaydi, o'sha-o'sha Oyqortog', Samarqand, Turk qishloq, O'smat ota, Oybuloq, Turk ariq, Jarko'cha va boshqalar. Shu sababdan bo'lsa kerak, bu asarlar bir necha pardadan tarkib topgan, biroq sahna ko'rinishi o'zgarmaydigan dramatik asarlardak taassurot qoldiradi. Vaholanki, dramatik asar uchun bugungi kunda dialogik shakl ham uncha muhim bo'lmay qoldi.

Masalaning yanada muhim bir jihatiga ham e'tibor qaratish zarurki, asarda kamdan-kam ko'rinadigan personajlar nutqi hikoyachi, ya'ni ro'viy nutqining polifonik ko'rinishidir. Chunki ro'viy nutqi bu asarlarda xuddi she'riy asarlardagidek yagona hukmron nutq, aniqroq aytganda, monologik xarakter kasb etgan nutq sifatida ko'zga tashlanadiki, nasriy asar tilining shunday xususiyatini K. Isiguroning "Halovat topmaganlar", "Noktyurnlar", "Tumanli rutubat aro" romanlari tilida ham ko'ramiz.

Isajon Sulton nasrida, xususan, falsafiy ruh kuchli "Boqiy darbadar"da sujet qurilishi, xarakter qiyofasi, xronotop masalalari sal boshqacharoq yo'sinda hal qilinadi. Birinchidan, "Boqiy darbadar"dagi sujet chizig'i yagona markazga jamlanmaydi, har bir fasldagi hikoya, rivoyat alohida-alohidadek taassurot qoldiradi. Ikkinchidan, sujetdagi har bir rivoyat va hikoyaning o'z qahramonlari bor. Uchinchidan, bular o'z navbatida xronotopning rang-barang ko'rinishlarini yuzaga keltirgan.

Yuqorida ko'rib o'tilganlardan ma'lum bo'lyaptiki, intermatnlik darajasi kuchli bo'lgan asarlarda ham romantizm va realizmga mansub asarlardagidek konflikt va xarakter yaratilishi, sujet va kompozisiya tuzilishi har bir yo'zuvchining iqtidori, qolaversa, individual uslubidan kelib chiqqan holda turli-tuman bo'lishi mumkin ekan. Demak, bu asarlarning har biri alohida olingan o'z-o'zicha original va betakrordir, degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдухолиқзода М. Қ. Жиззах қўзғолони. – Жиззах, "Сангзор" нашриёти, 2007.
2. Айтматов Ч. Асрга татигулик кун. – Т.; Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санат нашриёти, 1989.
3. Барт Р. Избранные работы. – М.; 1989.
4. Barthes R. Texte (theorie du) // Barthes R. Euvres completes. T. II. – P: Seuil, 1994.
5. Исажон Султон. Асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
6. Расулов А. Мангулик суви // И.Султон насри бадияти. .Т.: "Turon zamin ziyo" нашриёти, 2018
7. Холбеков М. Структур адабиётшунослик. –Т.; "Наврўз", 2014.
8. Qobul Bahodir // Bog'dagul. – Т.: "Mashhur Press" nashriyoti, 2019. – B. 30-31.
9. Қобул Б. Отачиروق. – Т.; "Mashhur – press", 2021.